

\$LEGAL
SCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

1-JILD | 1-SON

2025

LEGALSCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

1-jild 1-son 2025-yil

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Amirov Zafar Aktamovich - yuridik fanlar doktori

TAHRIR HAY'ATI:

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Umarxonova Dildora Sharipxanovna - yuridik fanlar doktori, professor;

Fazilov Faxod Maratovich - yuridik fanlar doktori, dotsent;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Kenjayev Rustam Xaydarovich - yuridik fanlar nomzodi, professor.

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

YURIDIK FANLARNING
DOLZARB MASALALARI
1-jild, 1-son (noyabr, 2025). - 31 bet.

MUNDARIJA

<i>Xudayberdieva Maftuna Zaфар kizi</i> РОЛЬ ПРАВ ДЕТЕЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ: ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	05-16
<i>Eshmurodov Baxrom Ergashevich</i> ADVOKATLAR KASBIY HUQUQIY ONGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	17-21
<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KRIMINALISTIKA VA UNING MILLIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI ROLI	22-25
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING YANGI BOSQICHI	26-30

Received: 15 November 2025
Accepted: 25 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

FEATURES OF PROFESSIONAL LEGAL CONSCIOUSNESS OF LAWYERS

Eshmurodov Bakhrom Ergashevich

Independent Researcher of TDYU

Abstract. This article analyzes the main characteristics of the professional legal consciousness of lawyers. The professional form of legal consciousness differs from general legal consciousness in terms of its content, structure, and mechanisms of functioning. The article highlights the influence of legal ethics, the role of professional reflection in the law application process, the stability of legal values, and the high level of integration of normative-legal knowledge.

Keywords: professional legal consciousness; advocacy activity; legal thinking; legal ethics; principle of independence; law enforcement practice; professional competence.

ADVOKATLAR KASBIY HUQUQIY ONGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Eshmurodov Baxrom Ergashevich

TDYU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: bakhromeshmurodov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokatlarining kasbiy huquqiy ongiga xos bo'lgan asosiy jihatlar tahlil qilinadi. Huquqiy ongning professional shakli o'zining mazmuni, tuzilishi hamda amal qilish mexanizmlari bo'yicha umumiy huquqiy ongdan farq qiladi. Maqolada advokatlik etikasining ta'siri, huquqni qo'llash jarayonida kasbiy refleksiya, huquqiy qadriyatlarining mustahkamligi va normativ-huquqiy bilimlarning yuqori darajadagi integratsiyasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy huquqiy ong; advokatlik faoliyati; huquqiy tafakkur; advokatlik etikasi; mustaqillik tamoyili; huquqni qo'llash amaliyoti; kasbiy kompetensiya.

Demokratiya va huquqiy davlat qurilishi sharoitida huquq har bir shaxs va davlat organi uchun majburiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Bu dolzarblikning asosiy sababi huquqiy sohaning jamiyat hayotida hal qiluvchi rol o'ynay boshlashi bilan bog'liq. Kasbiy huquqiy ongni tadqiq qilish muammosi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Gap shundaki, globalizatsiya, raqamlashtirish, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlarni yanada murakkablashtirib, ularni tartibga solishda huquqning ahamiyatini oshirmoqda. Shubhasiz, bunda fuqarolarning o'z huquqlarini bilishi va himoya qila olishi uchun huquqiy soha asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Huquqiy sohaning bunday hal qiluvchi o'rin egallashi bevosita yuridik kasbning ahamiyatini oshiradi. Yuristlar (sudyalar, prokurorlar, advokatlar, yuridik maslahatchilar, qonun ijodkorlari va boshqalar) huquqiy normalarni amaliyotga tatbiq etuvchi, huquqiy munozaralarni hal qiluvchi va fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi asosiy subyektlardir. Ularning faoliyati jamiyatda adolatni, qonuniylikni va tartibni ta'minlashda markaziy o'rin tutadi. Yurist faqat qonunlarni bilishi emas, balki ularni to'g'ri qo'llay olishi, vaziyatni tahlil qila

olishi, mantiqiy xulosalar chiqarishi va muammolarni hal qila olishi kerak. Yuristning ishida halollik, xolislik, sadoqat va prinsipiiallik muhimdir. Jamiyat yuristlardan nafaqat yuqori professionalizm, balki yuksak axloqiy fazilatlarini ham kutadi. Kasbiy huquqiy ong aynan shu etik va axloqiy asoslarni ham o'z ichiga oladi.

O.A. Stroeva haqli ravishda ta'kidlaydi: "...zamonaviy huquqiy ongning tabiati, mohiyati va mazmunini tushunish bilan bog'liq masalalar majmuini hal qilmasdan turib, amaldagi huquq haqida aniq biror narsa gapirishning iloji yo'q." [1; 18 b] O.A. Stroevaning fikri huquqiy ongni shunchaki psixologik yoki sotsiologik hodisa sifatida emas, balki huquqiy tizimning ajralmas qismi, uning "yuragi" sifatida ko'rishga chaqiradi. Amaldagi huquqni tushunish, tahlil qilish va baholash uchun uning ortida turgan insoniy va ijtimoiy omillarni, ya'ni huquqiy ongni chuqur o'rganish zarur. Aks holda, huquq faqat yuridik texnika yoki qog'ozdagi norma bo'lib qoladi, uning jamiyat hayotiga ta'siri esa tushunarsizligicha qolaveradi. Bu huquqiy ongning nima ekanligi, uning paydo bo'lish sabablari, kelib chiqish manbalari (masalan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, madaniyat, siyosat) va huquqiy voqelik bilan o'zaro aloqasi kabi falsafiy-huquqiy masalalarni o'z ichiga oladi.

T.V.Yuldashevaning fikricha: "...huquqiy ongni nazariy-huquqiy tadqiq etishning ahamiyati, birinchi navbatda, ushbu muammoning amaliy ahamiyatidan kelib chiqadi, chunki u ijtimoiy munosabatlar subyektlari bo'lmish jismoniy va kollektiv shaxslarning xulq-atvor aktlarini shakllantirish va amalga oshirishning ijtimoiy-irodaviy asoslarini ochib beradi va shu asoslarga kirib boradi." [2; 42-46 b] Yuldasheva huquqiy ongni tadqiq qilishning asosiy sababi sifatida uning "amaliy ahamiyatini" ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, huquqiy ong nazariyasini o'rganish shunchaki intellektual qiziqish emas, balki jamiyatdagi muammolarni hal qilish, huquqiy tizimni takomillashtirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun zarurdir. Bu fikr huquqshunoslikning fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lgan yuridik sotsiologiya va yuridik psixologiya bilan uzviy bog'liq.

Ko'pgina olimlar kasbiy huquqiy ongni, jumladan yuristlar huquqiy ongini ham soha mutaxassisliklaridan kelib chiqib alohida tadqiq etishni ilgari surishadi. "Huquqiy ongning professional shakli mazmuni jihatidan diskret xususiyatga ega bo'lib, u o'z turlarida yurist-mutaxassis faoliyat yuritadigan huquqiy sohaga qarab farqlanadi" [3; 43 b]. Albatta, bunday yondashuvga qo'shilmasdan bo'lmaydi.

Sog'lom kasbiy huquqiy ongga ega yuristlar huquqiy tizimning barqarorligini, jamiyatda adolat va ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kasbiy huquqiy ongni o'rganish, yuridik ta'lim dasturlarini takomillashtirish, yurist kadrlarini tanlash va ularning malakasini oshirish metodologiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Bu huquqiy ongning shakllanishi va rivojlanishidagi ichki va tashqi omillarni aniqlashga yordam beradi.

Advokatlarning professional huquqiy ongini ko'pincha huquqiy g'oyalar, tuyg'ular, e'tiqodlar va baholashlar majmui sifatida tavsiflashadi. Ular advokatlar jamiyati a'zolarining huquq, shuningdek huquqiy tartibga solish sohasidagi insonlarning xulq-atvoriga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Advokatning professional huquqiy ongining to'liq tavsifi uning tuzilmasini tahlil qilmasdan imkonsiz. Bu tuzilma umumiy huquqiy ong tuzilmasi bilan katta darajada o'xshash bo'lsa-da, aynan o'ziga xos subyekt – ya'ni advokatning o'zi sababli juda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Gap shundaki, advokatning professional huquqiy ongi — huquqiy ongning bir turi sifatida — an'anaviy ma'noda oddiy bo'lolmaydi. Advokat huquqni, masalan, u haqidagi

“mavhum” tasavvurlarga yoki muayyan normativ qoidalaridan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari haqidagi noaniq fikrlarga tayanib talqin qila olmaydi. Advokatning huquqqa nisbatan noprofessional munosabati oddiy huquqiy ong emas, balki uning buzilishidir (deformatsiyasidir).

Oddiy huquqiy ongda shaxs faqat atrof-muhitdagi voqealarda yo‘nalish oladi, xolos. Biroq bu voqelikning mohiyati haqida chuqur tasavvurga ega bo‘lmaydi. Amaliy ong orqali shaxs ushbu voqelikning o‘ziga bevosita qo‘shila boshlaydi. Bunday ong kundalik ongdan farqli ravishda aniq huquqiy tajribaga — shaxsiy hamda guruh (ijtimoiy) tajribasiga — asoslanadi. Uning negizida aniq va ravshan faoliyat modellari yotadi. Huquqiy sohada u shaxsning davlat hokimiyati tuzilmalari bilan o‘zaro ta’siri natijasidir. Chunki amaliyotchi yuristlar (shu jumladan advokatlar) o‘z faoliyati jarayonida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirib, rivojlantirib boradilar. Shu sababli ularning huquqiy ongi amaliy tusga ega bo‘ladi.

Professional-amaliy huquqiy ong ilmiy-nazariy ong bilan chambarchas bog‘liqdir. Buni tushuntirish oson, chunki huquqiy hodisalarni anglash tajriba bilan keladi. Albatta, yuridik xodimning malakali amaliy faoliyatini muayyan ilmiy-nazariy bilimlarni o‘zlashtirmasdan amalga oshirib bo‘lmaydi. Odatda katta professional tajribaga ega bo‘lgan, ilmiy bilimlarni puxta egallagan yuristlar ijodkor insonlar ham bo‘lib, huquq fanining asoslarini yaratuvchilar hisoblanadilar[4; 24 b].

Professional huquqiy ong tashuvchisi, biz tadqiq qilayotgan mavzuda, advokat bo‘lib, u yuristlar-professional jamiyati vakili hisoblanadi. Oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan va advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi O‘zbekiston Respublikasida advokat bo‘lishi mumkin[5].

Advokatning huquqiy psixologiyasining o‘ziga xosligi uning professional huquqiy ongingining tuzilmasi va uning xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Chunki advokat professional masalalarni hal qilishda faqat huquq normalaridan emas, balki axloqiy prinsiplardan ham foydalanadi. Bu esa advokatda huquqqa va uning amalda qo‘llanishiga nisbatan o‘z munosabati shakllanishini anglatadi.

Advokat o‘z professional faoliyatida prokuratura, sud va tergov organlari bilan hamkorlik qiladi — bu uning ishining o‘ziga xosligi bo‘lib, professional psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, jinoyat-protsessual sohada tergovchi, sudya va prokurorning bilish faoliyati ish bo‘yicha obyektiv haqiqatni aniqlashga qaratilgan. Albatta, advokat bu maqsaddan chetga chiqolmaydi, lekin mijoziga yordam ko‘rsatishda uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini maksimal darajada himoya qiladi. Advokat o‘z faoliyatining maqsadiga jarayonning boshqa ishtirokchilari tomonidan qilinadigan xatolarni hisobga olgan holda erishadi. Shuningdek, u huquq normalarini, Oliy Sud Plenumi qarorlarini mijozning ushbu masala bo‘yicha pozitsiyasiga muvofiq talqin qiladi, agar bu qonunchilikda belgilangan bo‘lsa. Bunday faoliyatni amalga oshirish uchun advokat o‘z professional ko‘nikma va qobiliyatlarini yaxshilashi va rivojlantirishi lozim.

Advokat va uning mijozining pozitsiyasi bir xil bo‘lishi kerak, albatta, agar himoyalalanayotgan shaxs boshqacha fikr bildirgan bo‘lmasa. Biroq bu qoidalar Sudya, prokuror va tergovchiga tegishli emas. Ular gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshqa sud jarayonidagi ishtirokchilarning pozitsiyasiga umuman bog‘liq emaslar. Advokat — bu adolatsizlik, shu jumladan huquqiy adolatsizlikka juda sezgir insondir. Ko‘plab hollarda aybsiz

odamlar aybdor deb topilib, haqiqiy jinoyatchilar kabi jazo olganlari ma'lum. Bunday holatlarni kamaytirish maqsadida advokat adolat va haqiqatni himoya qilishga, huquq ustuvorligini ta'minlashga va huquqiy tartibni, ayniqsa davlat tomonidan asoslantirilmagan tajovuzlardan himoya qilishga harakat qiladi.

Sudya, prokuror va advokatlarning professional-huquqiy psixologiyasi turlicha bo'lib, bu, jumladan, turli axloqiy me'yorlar va an'analar ta'sirida yuzaga keladi. Ularning axloqiy asoslari ko'p jihatdan farq qiladi, chunki ular huquqiy tizimda turli funksiyalarni bajaradilar. Shu nuqtai nazardan, advokatning xulq-atvori davlatdan nisbatan kamroq bog'liq bo'ladi, prokuror, tergovchi va sudyaning xulq-atvoriga qaraganda. Advokatning professional axloq kodeksi advokatlar hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bo'lsa, prokuratura xodimining axloq kodeksi Bosh prokuror tomonidan tasdiqlangan, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan.

Advokatning professional-huquqiy ideologiyasi sudya, prokuror va tergovchilarning ideologiyasidan farq qiladi, chunki u ko'proq liberal xususiyatga ega. Mijozlarini himoya qiluvchi advokatlar erkinlik, liberalizm va demokratiya g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydilar; ular himoyalananayotgan shaxsni oqlash yoki unga tayinlanayotgan jazoni yengillashtirish uchun liberal-huquqiy nazariyalar va huquqni qo'llash amaliyotidan foydalanadilar. Advokatning professional faoliyati uchun muhim jihat shundaki, u sudya va prokuror kabi barcha huquq sohalarida yo'nala olishi kerak. Advokat o'z mijozining huquqlari va qonuniy manfaatlarini fuqarolik, konstitutsiyaviy, ma'muriy ishlar bo'yicha, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudida himoya qilishi mumkin. Shuningdek, advokat korporativ, oila va nikoh, yer, saylov, uy-joy hamda soliq masalalari bo'yicha maslahatlar beradi.

Yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib, advokatning professional-huquqiy psixologiyasining quyidagi xususiyatlarini ajratish mumkin:

advokat va himoyalananayotgan shaxs o'rtasida ishonchli munosabatlar yuzaga kelishi lozim, ular psixologik jihatdan chambarchas bog'langan bo'lishi kerak;

advokatlar, prokuror, sudya va tergovchilardan farqli o'laroq, ular adolatli bo'lishi shart bo'lmagan holatda psixologik tabiati bo'lgan hodisalarni erkin ifoda etish huquqiga ega;

advokat kasbiga xos xususiyat — adolatsizlik va fuqaroning erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, ayniqsa davlat tomonidan bo'lgan asoslantirilmagan tajovuzlarga qarshi kurash;

advokat jamiyati a'zolarining ongida "himoya yo'nalishi" shakllanadi, bu advokatning himoya faoliyatining o'ziga xosligidan kelib chiqadi;

advokatning xulq-atvori katta darajada advokatlar jamiyati va unda qabul qilingan korporativ qoidalar (advokatning professional axloq kodeksi, bu kodeks advokatlar jamiyati tomonidan qabul qilingan, davlat tomonidan emas) bilan tartibga solinadi;

advokat uchun o'z pozitsiyasini shakllantirishda axloqiy va huquqiy vijdon muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak.

Advokatning professional-huquqiy ideologiyasiga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Advokatlar o'z mijozining pozitsiyasiga sodiq bo'lishlari kerak, hatto u rasmiy pozitsiyadan farq qilsa ham, chunki ular huquqiy masalalarda davlat fikridan nisbatan mustaqildir;

Liberalizm — advokatning professional-huquqiy ideologiyasining asosiy xususiyatlaridan biridir;

Advokat ish bo'yicha o'z fikrini bildirayotganda, qat'iy rasmiylik va normativ cheklovlarga bog'lanmasligi mumkin.

Shunday qilib, advokatlarning professional-huquqiy ongini oshirish va rivojlantirish uchun uning mazmuni, mohiyati va xususiyatlarini bilish va tushunish zarur. Shuningdek, uning miqdoriy va sifat xususiyatlarini belgilovchi bir qator omillarni hisobga olish kerak, bu esa professional deformatsiyani oldini olish imkonini beradi.

Natijada, bu butun sud tizimining faoliyatiga, qonun ustuvorligini va huquqiy tartibni mustahkamlashga, shuningdek, mamlakatimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlarning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy qonunchilik va amaliyotning jadal o'zgarishi yuristlardan doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib borishni talab qiladi. Yuristlarning huquqiy ongi ularning kasbiy faoliyati samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Deformatsiyaga uchragan yoki yetarli darajada rivojlanmagan ong huquqbuzarliklarga, korrupsiyaga, huquqiy xatolarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Строева О.А. Типологические свойства правосознания: Дисс. ... канд. юрид. наук. М., 2014. С. 18
2. Юлдашева Т.В. Профессиональное (юридическое) правосознание и его деформации: теоретико-понятийный аспект // Бизнес в законе. 2012. № 3. С. 42–46.
3. Чикалов О.В. К вопросу об актуальности построения типологии профессионального правосознания // Вестник Московского университета МВД России. 2019, №7. С. 43
4. Малахов В.П. Доктринальное правосознание: характерные черты и тенденции изменений // Вестник Нижегородской академии МВД России, 2017, № 4. С. 24
5. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 10.08.2023-y., 03/23/862/0578-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son; 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son

LEGALSCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

1-jild 1-son 2025-yil

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).